



UDK:81.2

Shaxnozaxon XAKIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: shahnoza.hakimova1990@gmail.com

ADU dotsenti, PhD M.Karimova taqrizi asosida

O'ZLASHMA SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zlashma so'zlarning zamonaviy o'zbek tilidagi lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zlashma leksikaning fonetik, morfologik, semantik va stilistik jihatlari chuqur o'rganilib, ularning til tizimidagi o'rni va funksional imkoniyatlari aniqlanadi. Tadqiqot davomida turli usullar asosida turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va adabiy matnlardan olingan misollar tahlil qilinadi. Maqolada o'zlashma so'zlarning adaptatsiya jarayoni, ular orqali tilga kirib kelayotgan yangi tushunchalar, shuningdek, ularning milliy til me'yorlariga moslashuvi xususida xulosa beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining zamonaviy leksik taraqqiyotini tushunishga va til siyosati nuqtai nazaridan asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. O'zlashma so'zlarning funksional roli va ularning til tizimidagi o'zgarish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zlashma so'zlar, fonetik moslashuv, morfologik integratsiya, semantik o'zgarishlar, leksik tizim, zamonaviy o'zbek tili, tilning globalizatsiyasi.

LINGUISTIC FEATURES OF ORIGINAL WORDS

Annotation

This article analyzes the linguistic features of loanwords in the modern Uzbek language. The phonetic, morphological, semantic and stylistic aspects of loanwords are studied in depth, and their place and functional capabilities in the language system are determined. During the study, examples from various media, social networks and literary texts are analyzed using various methods. The article provides a conclusion on the process of adaptation of loanwords, new concepts entering the language through them, as well as their adaptation to national language norms. The results of the study serve to understand the modern lexical development of the Uzbek language and make informed decisions from the point of view of language policy. The functional role of loanwords and the processes of their change in the language system are highlighted.

Key words: Loanwords, phonetic adaptation, morphological integration, semantic changes, lexical system, modern Uzbek language, globalization of language.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СЛОВ

Аннотация

В статье анализируются лингвистические особенности заимствованных слов в современном узбекском языке. Глубоко изучаются фонетические, морфологические, семантические и стилистические аспекты заимствованной лексики, определяются ее роль и функциональные возможности в системе языка. В ходе исследования будут проанализированы примеры из различных СМИ, социальных сетей и литературных текстов с использованием различных методов. В статье делается вывод о процессе адаптации заимствованных слов, о новых понятиях, входящих через них в язык, а также об их адаптации к национальным языковым нормам. Результаты исследования послужат пониманию современного лексического развития узбекского языка и принятию обоснованных решений с точки зрения языковой политики. Будет освещена функциональная роль заимствованных слов и процессы их изменения в языковой системе.

Ключевые слова: Заимствования, фонетическая адаптация, морфологическая интеграция, семантические изменения, лексическая система, современный узбекский язык, глобализация языка.

Kirish. O'zlashma so'zlar har qanday milliy tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular tilning leksik boyligini oshiradi, zamonaviy hayot talablariga moslashuv imkonini beradi. O'zbek tili ham tarixiy jarayonlarda arab, fors, rus va ingliz tillaridan ko'plab o'zlashma so'zlarni qabul qilgan. O'zlashma so'zlar har qanday milliy tilning leksik rivojida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat lug'aviy boylikni oshiradi, balki tilning zamonaviy hayot, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalaridagi yangiliklarni ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, o'zlashmalar tilning kommunikativ salohiyatini kuchaytiruvchi, dinamik elementlar sifatida qaraladi[1].

Tilshunoslikda leksik o'zlashmalar ikki asosiy manbadan — ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillar ta'sirida yuzaga keladi. Tashqi omillar sifatida madaniy aloqalar, savdo-sotiq, migratsiya, diniy va siyosiy ta'sirlar

muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar natijasida bir til ikkinchisi bilan uzviy aloqa o'rnatadi va bu aloqalar tilning leksik tizimiga yangi elementlarning kirib kelishiga olib keladi.

O'zbek tili ham tarixiy taraqqiyot davomida turli tillar bilan uzviy aloqada bo'lgan va ular orqali boyigan. Jumladan, arab va fors tillari orqali diniy, ilmiy va adabiy terminologiya kirib kelgan bo'lsa, rus tili asosan texnik va ijtimoiy-siyosiy sohalar bilan bog'liq terminlarni olib kirgan. So'nggi o'n yilliklarda esa ingliz tilining ta'siri kuchayib, asosan biznes, axborot texnologiyalari, fan va ta'lim sohalariga oid terminlar o'zlashtirilmoqda. Masalan, kompyuter, internet, marketing, startap kabi so'zlar bugungi o'zbek leksikasining faol qismini tashkil etadi.

Ayni paytda o'zlashma so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi va ular bilan bog'liq tilshunoslik jarayonlarini tahlil qilish zamonaviy lingvistikaning dolzarb masalalaridan biri

bo'lib qolmoqda. Zero, bu so'zlar fonetik, morfologik va semantik jihatdan qanday integratsiyalashayotgani, ularning tildagi roli va jamiyatdagi qabul qilinishi til taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o'zlashmalar ko'plab ijtimoiy-lingvistik muammolarni ham yuzaga chiqaradi: masalan, tilning milliyliigi, standartlashuvi, hamda leksik tozalik (purizm) bilan bog'liq qarashlar. Shu sababli o'zlashgan so'zlarning lingvistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning korpusdagi taqsimotini o'rganish va zamonaviy o'zbek tilidagi funksional ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi[2].

Ushbu maqola ana shu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, o'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlarini korpus asosida o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari tilga yangicha yondashuvlar ishlab chiqishga va o'zlashma so'zlarning tildagi o'rini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosi N. Mahmudov ta'kidlaganidek, "Tilimizga kirib kelgan har bir so'z, u qanday manbadan bo'lmasin, o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga moslashmasa, u faol leksik qatlamga kira olmaydi" (Mahmudov, 2004).

Ayni paytda, zamonaviy tilshunos G. Paul fikricha, "O'zlashmalar tilning hayotiyliigi va tashqi dunyo bilan o'zaro aloqadorligini ifodalaydi" (Paul, 1984). Shu nuqtai nazardan, ularni lingvistik jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida o'zlashma (qarz) so'zlarning o'rganilishi uzoq tarixga ega bo'lib, ularning fonetik, morfologik va semantik jihatdan tildagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar o'zlashma so'zlarning til taraqqiyotidagi rolini yoritish, ularning klassifikatsiyasi, moslashuv mexanizmlari va zamonaviy o'zbek tilidagi faoliyatini o'rganishga qaratilgan.

Akademik Vohidov Sh. va Rahmatullayev B. kabi tilshunoslar o'zbek tilining rivojlanish bosqichlarida arabcha, forsha, ruscha va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'rini chuqur o'rgangan. Ular o'zlashma so'zlarni leksik qatlamlarning tarixiy shakllanishi nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Rahmatullayev B. o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida o'zlashma so'zlarning fonetik moslashuvi va semantik integratsiyasini ko'rsatgan.

G'afurov N. va Jumaniyozov O. o'zlashma so'zlarning fonetik strukturasi hamda morfologik moslashuv jarayonlarini tadqiq etgan. Jumaniyozov O. rus tilidan kirib kelgan so'zlarning urg'u tizimidagi o'zgarishlar va ular o'zbek tilidagi urg'u qoidalariga qanday moslashganini ilmiy asosda ko'rsatib bergan.

So'nggi yillarda Ziyayeva N., Mamajonova M. va Ergashev A. kabi olimlar kompyuter, internet, marketing, diplomatiya kabi sohalarida keng tarqalgan zamonaviy o'zlashma so'zlar ustida ishlamoqda. Bu olimlar o'zlashmalarni funksional uslubiy o'ziga xoslik, ya'ni matn turlari va janrlarida qanday ishlatilishi orqali tahlil qiladilar.

Tadqiqotlarda qarorli o'zlashmalar (tilda mustahkam o'rin egallagan) va beqaror o'zlashmalar (hali to'liq moslashmagan, vaqtinchalik foydalaniladigan) o'rtasida farq qilinadi. Shodmonov T. bu jihatni aniqlik bilan belgilagan bo'lib, har ikki turdagi so'zlarning tilga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlaydi.

Ba'zi tilshunoslar, xususan, Nematov H. va Boboyorov M. o'zbek tilida o'zlashma so'zlarning ortiqcha ishlatilishini tanqid qilgan va lingvistik purizm g'oyasini ilgari surgan. Ular o'zbekcha ekvivalentlar mavjud bo'lsa, xorijiy atamalarni ishlatmaslikni tavsiya qiladilar.

Ayniqsa, ko'p yillik foydalanish natijasida ba'zi o'zlashma so'zlarning ma'no o'zgarishlari yuzaga kelgan. Masalan, arabcha "ilm", "kitob" so'zlari o'zbek tilida o'zga

semantik konnotatsiyalar hosil qilgan. Bu holatni Sharipov Q. o'z tadqiqotlarida muhim deb ataydi.

Metodologiya. Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar taraqqiyoti va ularning soamaralari ana shu xalqlarning tillari leksikasida ham o'z ifodasini topgan bo'ladi. Bunday hodisalarning ahamiyatiga va rolga bag'ishlangan son-sonoqsiz tadqiqotlar mavjud. Lekin shunga qaramay, bu boradagi bahs va qizgin munozaralar barham topmagan. Chunki so'z o'zlashtirish masalasida tilshunoslar hanuzgacha qat'iy to'xtamga kelganlari yo'q qariyb 300 yildirki, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va funksiyalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

R.A.Budagov lug'aviy o'zlashmalarning o'z tildagi shakli bilan so'z qabul qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni o'zbek tilidagi arabcha so'zlar tabiati ham to'la tasdiqlaydi. Xususan: a) arab tilida konkret ma'noda ishlatilgan lug'aviy birlik o'zbek tilida mavhum ma'no bildiradi (soxib (ega), ayyom (kunlar), mavj (to'lqin)); b) arab tilida "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya jins ma'nosida ishlatiluvchi so'z o'zbek tilida tur ma'nosida qo'llanadi: murabbo (murabbo, marmalad), ayol (bola-chaqa, oila-ayol(xotin), maraz (umuman kasallik, dard)-maraz (yaramas, razil inson); v) arab tilida bir ma'noda ishlatilgan so'z o'zbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi (g'alayon, bisot); g) arab tilidagi otdan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek tilida uslubiy muqobiliga ega bo'lmaydi (anhor, anqo, araq, ariza, aruz); d) arab tilida noarxaik tavsifdagi lug'aviy birlik o'zbek tilida arxaiklashgan bo'ladi; (qozi, firqa, ishtirokiga, xikmat (fizika); o) arab tilida lug'aviy mustaqillikka ega bo'lgan so'z o'zbek tilida lug'aviy mustaqilligini inkor etadi (almisoq(dan beri), 6) arab tilida lug'aviy birlik ba'zan o'zbek tilida so'z tavsifida bo'ladi (lisoniy, lug'aviy, sifat, fe'l, taqriz); k) arab tilida so'z holida ishlatiluvchi birlik o'zbek tilida so'z birikmasi tarkibida qo'llanadi (nazar solmoq, avf etmoq, xayol surmoq, bahridan o'tmoq);

Deskriptiv-lingvistik tahlilga qo'shimcha ravishda, A. A. Reformatskiy tomonidan ilgari surilgan "so'zning o'zlashish bosqichlari" (fonetik, morfologik, semantik) asosida klassifikatsiya usuli qo'llandi (Reformatskiy, 1967).

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zlashma so'zlar o'zbek tiliga fonetik, morfologik va semantik jihatdan to'liq moslashadi. O'zlashma so'zlarning manbalari, asosan, arabcha, ruscha, forsha va inglizcha so'zlardan tashkil topgan. O'zlashma so'zlar fonetik jihatdan dastlabki bosqichda moslashadi, keyin esa morfologik integratsiya va semantik kengayish jarayonlarini boshdan kechiradi.

O'zlashma so'zlarning o'zbek tili qonuniyatlariga singib ketishi natijasida, ularning ishtirokida juft otlar ham hosil qilingan, albatta bu juft otlar hosil bo'lish jarayonida o'zbek tili grammatik qonun-qoidalariga bo'ysungan holda yasalgan. O'zbek tilining izohli lug'atida bunday so'zlar juda ko'p. Ikki so'zning grammatik teng bog'lanishidan yasalgan va bir umumiy tushunchani ifodalaydigan otlar juft otlar deyiladi. O'zbek tilidagi juft otlarning hosil bo'lish jihatiga ko'ra o'zlashma so'zlar quyidagilardan yasalgan:

1. Sinonim so'zlardan;
2. Bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan;
3. Antonim so'zlardan. Yuqoridagi juft so'zlar tasnif qilinganda, birinchidan, sinonim so'zlardan hosil bo'lgan juft so'zlarni ham bir qancha turlarga bo'lish mumkin:
 1. Juft otlarning ikkala qismi ham arabcha bo'lgan o'zlashma so'zlar;
 2. Bir qismi arabcha, bir qismi esa, boshqa tilga mansub juft so'zlar.

G. Vinokur fikricha, "O'zlashgan so'zlar nafaqat lug'atni boyitadi, balki yangi fikrlarni ifodalash vositalarini yaratadi" (Vinokur, 1956).

O'zlashmalarining manbalari asosan Arabcha (42%), Ruscha (33%), Forscha (13%), Inglizcha (12%) so'zlardan tashkil topgan.

Fonetik moslashuvlar: asosan rus va ingliz tilidan olingan so'zlarda kuzatildi. Masalan: printer → printr, manager → menedjer;

Morfologik integratsiya: monitor → monitorga, dizayn → dizaynerlik;

Semantik transformatsiya: platforma so'zi o'zbek tilida ijtimoiy maydon ma'nosini ham olgan.

Muhokama. O'zlashma so'zlarning integratsiyasi lingvistik jihatdan murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida tahlil qilinadi. Masalan, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar axborot texnologiyalari, biznes va yoshlar madaniyati sohalarida keng tarqalgan bo'lib, bu so'zlar morfologik jihatdan o'zbek tilining affiksalariga moslashadi. Fonetik integratsiya va semantik kengayish jarayonlari o'zlashma so'zlarning lingvistik tizimga kirishini ta'minlaydi..A. A. Zhuravlyovning fikriga ko'ra, "o'zlashgan so'zlar til strukturasi ichida yangi semantik aloqalar hosil qiladi" (Zhuravlyov, 1974), bu esa tilning o'zgaruvchanligiga dalildir. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning integratsiyasi tarixiy, madaniy va texnologik omillar ta'sirida shakllanuvchi ko'p qatlamli lingvistik jarayonni aks ettiradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zlashgan so'zlar shunchaki tilga olib kirilgan elementlar emas, balki qabul qiluvchi tilning fonetik, morfologik va semantik qonun-qoidalari asosida faol shakllanadi[3].

Thomason va Kaufman (1988) ta'kidlaganidek, tillararo aloqa natijalari nafaqat lingvistik, balki til tashqarisidagi (ekstralingvistik) omillarga ham bog'liq. O'zbek tilida arabcha va forscha so'zlarning keng o'zlashuvi Sovet davrigacha bo'lgan davrda, asosan, diniy, adabiy va ma'muriy sohalarida yuz bergan. Bu turdagi so'zlar odatda to'liq integratsiyalashgan bo'lib, ko'pincha ona til so'zlaridan farqlanmaydi. Bunga qarshi ravishda, Sovet davridagi ruscha o'zlashmalar, asosan, texnik va ma'muriy xususiyatga ega bo'lib, ko'pincha xorijiy fonologik xususiyatlarini saqlab qolgan.

So'nggi yillarda ingliz tili o'zlashmalarining ustun manbaiga aylanganini kuzatish mumkin, ayniqsa axborot texnologiyalari, biznes va yoshlar madaniyati sohalarida. Bunday so'zlar tilga odatda raqamli media orqali kiradi va dastlab transliteratsiyalangan yoki gibril shakllarda ishlatiladi, keyinchalik esa morfologik jihatdan moslashadi. Masalan, ingliz tilidagi startup atamasi o'zbek tilidagi raqamli diskursda startap shaklida qo'llaniladi va o'zbek tiliga xos qo'shimchalarni (masalan, -chi: startapchi) oladi[4].

1-jadval

O'zlashma so'zlarning lingvistik tahlili

Tashqi manba (til)	O'zlashgan so'zlar misoli	O'zlashuv sababi	Xususiyatlari
Arab tili	ilm, adab, vaqt, tarix, axloq	Islom dini, madaniyat, ilm-fan ta'siri	Lug'at boyligi, diniy-ilmiy terminlar sifatida mustahkam joylashgan
Fors-tojik tili	gul, rang, sham, daftar	She'riyat, madaniy aloqalar	Estetik-mazmunga ega, badiiy-uslubiy so'zlar
Rus tili	televizor, traktor, sovxoz	Sovet davri, texnika, siyosiy tizim	Texnik, siyosiy, ma'muriy terminlar, fonetik moslashtirilgan
Yunon tili (via arab)	faylasuf, matematika, afyun	Ilm-fan, falsafa orqali kirib kelgan	Asosan ilmiy-texnik terminlar
Hind tili	sandal, nilufar, tovu	Madaniy va tarixiy aloqa	Asosan tabiat va estetik ifodali so'zlar
Fransuz/lotin tili	konsert, teatr, artist	Madaniy-ma'rifiy sohalar orqali	Madaniy hayotga oid atamalar

Bunday neologizmlarning mavjudligi leksik yangilanish va madaniy globallashtiruvning faol jarayonini ko'rsatadi. Sapir (1921) ta'kidlaganidek, "til – bu madaniy vositadir", va yangi leksik birliklarning o'zlashtirilishi ko'pincha kengroq madaniy yo'nalishlardagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tili "leksik modernizatsiya" bosqichini boshdan kechirmoqda — global konsepsiyalarni ifodalash imkoniyatini kengaytirar ekan, o'zining ichki tuzilmasini ham saqlab qolmoqda.

Fonologik moslashuv naqshlari muhim kuzatuv sifatida ajralib turadi. Ayrim o'zlashma so'zlar to'liq fonemik integratsiyaga ega (masalan, arab tilidan o'zlashgan maktab), boshqalari esa donor til xususiyatlarini saqlagan, gibril fonologik tuzilmalarga ega. Bu holat Haspelmath (2009) tomonidan aytilgan "o'zlashma so'zlarning integratsiya davomida bo'ladigan uzluksizlik" g'oyasiga mos keladi.

O'zlashma so'zlarning morfologik xatti-harakati ularning funksional jihatdan chuqur moslashganini tasdiqlaydi. Ular o'zbekcha affikslarni oladi, so'z yasashda faol ishtirok etadi, va derivatsion zanjirlarda namoyon bo'ladi — bu esa ularning produktiv leksik birliklarga aylanganini anglatadi.

O'zlashgan so'zlarning semantik evolyutsiyasi ham alohida e'tiborga loyiq. Masalan, platforma va dizayn so'zlari semantik kengayishga uchragan — ular dastlabki ma'nolaridan tashqari, yangi metaforik yoki madaniy kontekstlarda ham ishlatiladi. Bu Weinreich (1953) tomonidan ilgari surilgan "semantik moslashuv" nazariyasiga mos keladi — ya'ni o'zlashgan so'zlar yangi madaniy va kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda ma'nosini o'zgartirishi mumkin.[5, 102]

Bundan tashqari, korpus tahlili shuni ko'rsatdiki, o'zlashmalarining chastotasi matn janriga bog'liq. Texnik, raqamli va ta'limga oid matnlarda inglizcha o'zlashmalar ko'proq uchraydi, diniy va tarixiy matnlarda esa arabcha va forscha so'zlar ustunlik qiladi. Bu janrga xos farqlar ijtimoiy-lingvistik jihatdan yanada chuqur o'rganishni, xususan, so'zlovchilarning munosabati va avlodlararo leksik ustuvorliklarni o'rganishni taqozo etadi.

Nihoyat, shuni qayd etish kerakki, leksik o'zlashmalar tilni boyitishi bilan birga, til pokligi va milliy identitet masalalarini ham kun tartibiga olib chiqadi. Fishman (1991) kabi olimlar til o'zgarishlarini qamrab olish bilan birga madaniy noyoblikni saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbek tilida bu muvozanat turli meyorlashtirish harakatlari va jamoatchilik diskursi orqali boshqarilmoqda — bu esa qanday va qanchalik darajada o'zlashmalar tilga normal holatda kirib borishini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligi doirasida S. Sirojiddinov o'z asarlarida o'zlashmalarining tarixiy qatlamlar bo'yicha tasnifini berib, ular orasida faol va nofaol qatlamlarni ajratgan (Sirojiddinov, 1998).

Turk tillari (qardosh)	ota, ona, daryo, qush	Genetik yaqinlik	Asosiy lug'at boyligini tashkil etadi
---------------------------	--------------------------	---------------------	--

O'zbek tili ming yillar davomida shakllanib, o'z lug'at boyligini asosan ichki manbalar orqali kengaytirib bordi. Til taraqqiyoti davomida mavjud so'zlardan yangi ma'nolar yasaldi, ayrim so'zlar qo'shimcha grammatik funksiyalarni bajara boshladi, xalq shevalaridan ba'zi birliklar adabiy til tarkibiga kirib bordi. Bu esa tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlaridan biri hisoblanadi[6].

Shunga qaramay, har qanday til singari o'zbek tili ham faqat ichki imkoniyatlarga tayangan holda rivojlana olmaydi. Tashqi omillar, ayniqsa boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar lug'at boyligini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bu holat tillar o'rtasidagi tabiiy aloqa va o'zaro ta'sirning natijasidir. Har qanday tilda lug'at tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar, asosan, ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: biri eskirgan so'zlarni yangi so'zlar bilan almashtirish, ikkinchisi esa boshqa tillardan yangi so'zlarni qabul qilish.

Demak, o'zbek tilining leksik tarkibi ikki asosiy manbaga tayanadi: ichki va tashqi manbalarga. Tilimizda ko'plab qadimgi turkiy ildizli so'zlar bilan bir qatorda arab, fors, rus va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashmalar ham mavjud. Bu so'zlar har xil davrlarda, turli ehtiyojlarga ko'ra o'zlashtirilgan bo'lib, ular orasida "afyun", "fonus", "faylasuf", "qandil", "chit", "qonun" kabi hind, grek, arab va lotin tillariga oid leksik birliklar bor. Ularning ko'pchiligi Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi[7].

O'zlashma so'zlarning o'zbek tilida keng tarqalishining asosiy sababi – bu tillararo aloqalar, ayniqsa fors-tojik, arab va rus tillari bilan bo'lgan uzoq muddatli ijtimoiy, madaniy va diniy aloqalardir. Ikkitillilik fenomeni ham bu jarayonga turtki bo'lgan. Jumladan, o'zbek xalqi orasida qo'shni qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tatar) bilan ikki tilli muhit keng tarqalgan.

So'z almashinuvi, ayniqsa, xalqaro hamkorlik, texnologik taraqqiyot, madaniyatlararo aloqalar kuchaygan hozirgi zamonda tobora faollashib bormoqda. Shunga qaramay, so'z o'zlashtirish masalasi hali hanuz bahsli mavzulardan biri

bo'lib qolmoqda. Tilshunoslar orasida bu borada yakdil fikr yo'q – kimdir bu jarayonni tabiiy til taraqqiyoti deb hisoblasa, boshqalar uni til ifoda vositalarining buzilishi deb baholaydi[8].

So'z o'zlashtirish har doim til taraqqiyotining tashqi omillaridan biri bo'lib kelgan. Tabiiyki, bu jarayonda har qanday so'z emas, balki ehtiyojdan kelib chiqqan leksik birliklar o'zlashtiriladi. So'zlar – xalq madaniyati, tafakkuri va tarixining aksidir. Shuning uchun o'zlashma so'zlar ham shu xalq hayotining ajralmas qismiga aylanadi.

Leksik qatlamlar har doim murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning har biri o'zining alohida lisoniy qadriyatiga ega. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Shu sababdan har bir tilning leksikasini tahlil qilishda chet til elementlarining o'rni, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Arab tili so'zlari hozirgi o'zbek tilida eng ko'p o'zlashgan qatlamlardan biri hisoblanadi. Bu so'zlar o'zbek tilida mazmunan boyligi, uslubiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Hazrat Navoiy arab tilining balog'at va fasohatdagi o'rni haqida "Muhokamatul lug'atayn" asarida alohida ta'kidlab, arab tilini mo'jizakor deb atagan[9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zlashgan so'zlar o'zbek tilida lingvistik jihatdan faol va madaniy ahamiyatga ega qatlamni tashkil etadi. Ular tilning tashqi ta'sirlarga javob berishini va ichki moslashuvchanligini namoyon qiladi — bu holat o'zbek tilining mustahkamligi va moslashuvchanligidan darak beradi.

O'zlashma so'zlar o'zbek tilining zamonaviy rivojlanish bosqichida muhim til birliklari hisoblanadi. Ular nafaqat leksik tizimni boyitadi, balki grammatik va semantik tizimlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Maqolada keltirilgan ilmiy qarashlar asosida shuni aytish mumkinki, korpus asosida olib borilgan tahlillar o'zlashmalarni chuqur va tizimli o'rganish uchun samarali metod hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov, N. (2004). O'zbek tilining zamonaviy leksikologiyasi. Toshkent: Fan.
2. Paul, H. (1984). Prinzipien der Sprachgeschichte. Tübingen: Max Niemeyer.
3. Jones, M. "Linguistic Borrowing: The Impact of Language Contact". Cambridge University Press. 2021. 112p.
4. Vinokur, G. (1956). Ocherki po istorii yazykoznaniya v Rossii XIX veka. Moskva: AN SSSR.
5. Zhuravlyov, A. A. (1974). Funktsionalnaya semantika. Moskva: Nauka.
6. Sirojiddinov, S. (1998). O'zbek tili tarixiy leksikologiyasi masalalari. Toshkent: O'zbekiston.
7. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. Berkeley: University of California Press.
8. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace and World.
9. Fishman, J. A. (1991). Reversing Language Shift: Theoretical and Empirical Foundations of Assistance to Threatened Languages. Clevedon: Multilingual Matters.